

TASAVVUF TA'LIMOTINING VUJUDGA KELISHI VA UNING TARIXIY SHAKLLANISH OMILLARI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-22-329-334>

A'zamjonov Islomjon Komiljon o'g'li

Tasavvuf germeneytikasi mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: PhD. Jurayev Sh.S.

Annotatsiya. Ushbu maqolada tasavvuf ta'limotining shakllanishi, uning tarixiy ildizlari va kurtak yoyishi haqida bayon etiladi. Shuningdek, tasavvufning yirik vakillari va ularning faoliyati borasidagi fikr-mulohazalar yuritiladi. Tasavvuf tariqatlarining vujudga kelish sabablari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: tasavvuf, so'fiy, Shish, zohidlik, ayol so'fiylar, Robiya Addaviya, tariqat, Bahouddin Naqshband, zikr.

KIRISH

Tasavvuf, so'fiylikning vujudga kelishi tarixan shakllangan bo'lib, qadimgi davrlarga borib taqaladi. Tasavvuf tarixi dunyoning paydo bo'lishi davrida vujudga kelgan deb hisoblanadi. Birinchi bo'lib tasavvuf yo'lga kirgan va unga asos solgan deb Odam Atoning o'g'li Shish keltirib o'tiladi. “XV asrda yashagan alloma olim Husayin Voiz Koshifiy “Futuvvatnoma” asarida tasavvuf so'zi haqida bunday yozadi: “Ba'zilar bu so'z islom paydo bo'lgandan keyin kelib chiqqan deydilar. Ammo, ma'lum bo'lishicha, tasavvuf so'zi birinchi bo'lib “so'fiy” degan nomni olgan odam Odam Oto farzandlaridan biri Shish edi deb naql qilinadi. Uning liboslari yashil suf (jun mato) dan ekan va Shishdan keyin jun matodan kiyim kiyib yuruvchilarni “so'fiy” deydigan bo'ladilar. O'zini shu toifaga mansub deb biladiganlarni tasavvuf ahli deb yuritadilar” [1,7]. Ko'rinib turibdiki, tasavvuf islom dinidan avval vujudga kelgan. Shu o'rinda nega aynan tasavvufni islom dini bilan bog'liq tarzda tushunish kerak degan savol tug'iladi. Negaki, islomdan boshqa xristianlik, buddizm va shu kabi yirik-yirik dinlar ham mavjud. Bunga asosiy sabablardan biri sifatida islom diniga mos tarzda keng yoyilgan tasavvuf kishilar ongida islom ta'limotlari asosida shakllangan deb qaralgan. Asliga olganda tasavvuf islomdan ancha oldin vujudga kelgan ta'limotdir.

TAHLIL VA METODLAR

Tahlillar davomida so'fiylikning shakllanishi va uning yirik vakillari haqida batafsil yoritiladi. Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy kabi adabiyotimizning yetuk mutafakkirlarining qarashlari orqali tasavvuf borasidagi fikrlar asoslab beriladi. Tasavvuf yo'llari va uning bosqichlarining mohiyati nimada ekanligi achib beriladi. Bu yo'lga kirgan har bir shaxsning turmush tarzini tashkil etishiga qadar bo'lgan jarayonlarga ham to'xtab o'tiladi.

Mazkur maqolani yoritib berishda tarixiylik, germeneytik va tahliliy metodlardan foydalanildi. Din va dunyoviylikni uyg'unlashtirgan holatda yondashuvlar berildi.

NATIJALAR VA MULOHAZALAR

Tasavvuf va so‘fiylar borasida mutafakkir Alisher Navoiy ham o‘z ijodida keltirib o‘tadi. Jumladan, “Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” ni Shayx Uvays Qaraniy vasfidan boshlar ekan, olam sirlaridan bir sirni quyidagicha yozadi: “Va Hazrat Risolatni (sallallohu alayhi vasallam), ul ko‘rmaydur erdi va ul Hazrat ham ani zohir ko‘zi bila ko‘rmaydur erdi, ma’no va ruhoniyyat yuzidin tarbiyat qilib erdi. Bu jihatdin har kishining, bu toifadin zohir yuzidin piri ma’lum bo‘lmasa va mashoyixdin birining ruhi ani tarbiyat qilgan bo‘lsa, ani Uvaysiy derlar””[2, 4]. Alisher Navoiy ijodi va tasavvuf borasida gap ketar ekan ilk so‘fiy sifatida Uvays Qaraniyni keltiriladi. Navoiyning bu yondashuvi haqida esa bir qancha manbalarda ham uchratsak bo‘ladi. Umuman olganda tasavvuf va uning ilk vakillari borasida taxmin va fikrlar doirasi juda xilma-xildir. Bu esa har bir olimning dunyoqarashiga bog‘liq tarzda shakllangan. “...Abdurahmon Jomiyning so‘zlariga ko‘ra, u avvalgi manbalarga asoslanar ekan birinchi so‘fiy unvoni bilan atalgan Shayx Abu Hoshim Kufiy bo‘lgan (vafoti 776 y.)”[4, 8]. Abdurahmon Jomiy o‘zining “Nafahat al-Uns” asarida Navoiy singari tasavvufga oid qarashlarini bayon etgan.

Tasavvuf keyinchalik din va undagi mazhablarga mos tarzda rivojlanib bordi. “So‘fiylar tasavvuf (sufizm)ning kelib chiqishini islom payg‘ambari – Muhammad (s.a.v)ga bog‘laydilar.Ularning e‘tiqodiga ko‘ra, Payg‘ambarga kelgan vahiy ikki o‘lchamdan iborat bo‘lgan: biri Qur‘on oyatlari shaklida ifodalangan, ikkinchisi esa uning qalbiga berilgan ilohiy ilhom shaklida namoyon bo‘lgan. Birinchisi barcha insonlar uchun mo‘ljallangan bo‘lsa, ikkinchisi faqat tanlangan kishilarga berilib, “qalbdan qalbgga” bevosita uzatilgan.“Kitob ilmi”, ya‘ni Qur‘on va hadis matnlariga oid bilim ilm as-safina deb atalgan bo‘lsa, “qalb ilmi” esa ilm as-sina deb yuritilgan. Diniy ulamolar (yakka holda – olim) Qur‘on va hadis ilmlarida yetuk mutaxassislar hisoblangan, biroq “qalb ilmi” aynan so‘fiylar deb atalgan kishilarga xos deb qaralgan”[5, 9]. Tasavvufni islom dini bilan aloqadorlikda shakllanganligi haqidagi qarashlar ko‘plab uchraydi. Ammo, tasavvuf ta‘limotidagi ta‘sir va g‘oyalarni buddizm, zardushtiylik, moniylik va nasroniylik kabi diniy ta‘limotlarda ham ko‘rsak bo‘ladi. Xususan, jun matodan kiyim kiyib yurish, nafsga berilmaslik kabi amallarni ayta olamiz. Bu odatlarni barcha dinlar uchun poydevor sifatida bilsak bo‘ladi. Tasavvufdagi barcha g‘oyalarning jamlanganligi islom dinida yaqqol seziladi. Shuning uchun, tasavvufni keyinchalik islom dini ta‘limotlari asosida tasavvur qilish yuzaga kelgan. “Tasavvuf tadrijiy taraqqiyotga ega ta‘limot bo‘lib, islom olamida VIII asrning o‘rtalarida paydo bo‘lgan. Dastlab u zohidlik harakati ko‘rinishida kurtak yoyadi. Gap shundaki, hazrat Muhammad Mustafu sallallohu alayhi vasallam vafotlaridan keyin musulmonlar jamoasi ichida bo‘linish yuz beradi, ayniqsa, xalifa Usmon zamonida boylikka ruju qo‘yish, qimmatbaho tuhfa bilan qarindosh-urug‘lar, yaqin do‘st-birodarlarni siylash rasm bo‘ladi. Umaviylar xalifaligi davriga kelib esa, saroy hashamlari, dabdabali bezaklar, oltin-kumushga berilish, xazina to‘plash avj oldi. Ya‘ni diniy mashg‘ulotlar, Xudo yo‘lidagi toat-ibodat o‘rnini dunyoviy ishlar, dunyo moliga muhabbat egallay boshladi”[5, 9]. Har qanday dunyoviy ishlar va boyliklarni ustun qo‘ygan shaxslar jamiyatning e‘tiqodli kishilaridagi norozilikka sabab bo‘ldi.

Ularning aksariyati uy-joy, mol-mulkka e'tibor qilmagan va hadislarini to'plovchi, diniy amallarga mos tarzda hayot kechuruvchi sahobalar edi. “Bularning bir qismi diniy himoya qilib, ochiq kurashga o'tlangan bo'lsalar, ikkinchi qismi qanoat va zuhdni (“zuhd” so'zidan “zohid” so'zi kelib chiqqan) asosiy maqsad qilib olib, saroy ahli va sarvaddorlar, boylar axloqiga qarshi norozilik belgisi sifatida tarkidunyochilik g'oyasini targ'ib etib, ijtimoiy faoliyatdan butunlay chetlashganlar, surunkali toat-ibodat bilan shug'ullanganlar”[5, 9]. Ibn Xaldunga tegishli bo'lgan quyidagi fikrlarining umumiy mohiyatida sahobalar, tobeinlar va ulardan keyingi asr kishilarida hidoyat, ibodat, taqvo va zohidlik kabi his-tuyg'ular mujassam bo'lganligi seziladi.

Tasavvuf so'zining kelib chiqishi borasida turlicha qarashlar mavjuddir. “Ba'zilar bu so'z “saf” so'zidan kelib chiqqan deyдилar, chunki so'fiy Iloh yo'lga kirganlarning birinchi safida turuvchidir. Ba'zi olimlar uni “suffa” so'zidan hosil bo'lgan deb aytadilar: ashobi suffa Rasululloh sallallohu alayhi vasallam tirikliklaridayoq tarki dunyo qilgan taqvodor kishilar bo'lib, so'fiylar shularga taqlid qiladilar, deb tushuntiradilar. Yana bir guruh olimlar so'fiy so'zi “safo” so'zidan kelib chiqqan, chunki bu toifaning qalbi sidqu safo oftobiday porlab turadi, deganlar. Yana ba'zilar so'fiy “sufuh” so'zidan yasalgan, sufuh – biror bir narsaning xulosasidir, bu jamoa xalqning xulosasi bo'lganligi sababli ularni so'fiy deganlar, deb yozadilar. So'fiy so'zi “sof” so'zidan kelib chiqqan, deguvchilar ham bor”[5, 10-11]. Tasavvuf atamasining izohlanishi haqidagi fikr-mulohazalar xilma-xil, ammo ularning umumiy mohiyati biz mazmunga olib boradi. Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy bo'lsa “Osor ul-boqiyah” asarida ushbu so'zni yunoncha “suf”, ya'ni faylasuf so'zining oxirgi qismidan yasalgan deb ko'rsatadi. Boshqa olimlar ham o'z qarashlarini berganlar. Odatda, ular orasidan Ibn Xaldunning fikri haqiqatga yaqin ekanligi bilan ajralib turadi. U “Muqaddima” asarida tasavvuf “suvf” – “jun”, “po'stin” so'zidan olingan bo'lib, qadimdan tarki dunyo qilgan zohidlar jundan to'qilgan kiyim yoki po'stin kiyib yurishni odat qilganligi, bu bilan ular bashang kiyinib yuruvchilardan farqli hayot tarzini o'zlarida namoyon etganligini keltirib o'tadi. Ibn Xaldunning fikrlari Husayin Voiz Koshifiyning fikrlariga deyarli bir xil ekanligi tasavvuf vakillarining ko'rinishini yana bir bora ifodalab bermoqda. “Tasavvuf to'g'risida yana bir aniq tushunchani buyuk avliyolardan bo'lmish Abdulqodir Jilvoniy (o'limi mil.1165) “Sirrul asror” kitobida yozadi: “Tasavvuf kalimasi to'rt o'zak harfdan iborat, t,s,v,f. T – tavbani ifoda etadi. Bu ikkiga bo'linadi: zohiriy tavba va botiniy tavba. S – safo holini (yorug'lik, ravshanlik, porloqlik) ifoda etadi. Bu ham O'z navbatida ikkiga bo'linadi: qalbning sofligi va sirning sofligi. V – valoyat holi (valiylik xususiyati). Bu hol ichki olamning pokligidir. F – fano, ya'ni ruhning borliqdan chiqishi, ilohiy sifatlar orasiga singib ketishi”” [2, 9]. Ko'rinib turibdiki, tasavvuf atamasini tashkil etuvchi harflarning o'zidagina tasavvufning negizi ochib berilmoqda.

Tasavvufning asosida to'rt omil mavjud deb hisoblashadi. “Tasavvufni to'rt tamoyilga asoslaydilar: 1) Allohni bilish, 2) Allohning ismlari, sifatleri va amallarini bilish, 3) Nafs va yomonliklarni bilmoq, 4) Shubhalardan voz kechish va dunyo tartibini anglash”[3, 14]. Tashqi ko'rinishda banda bo'lish, botiniy olamni barcha aloqalardan tozalab, ruhni hur va pok saqlash demakdir. So'fiyga hech bir narsa va

hech bir kishi qaram bo‘lmasligi, uning o‘zi ham hech bir narsaning, hech bir odamning qarami bo‘lmasligi kerak.

Tasavvuf vakillari orasida ta‘lim beruvchilar, ta‘lim oluvchilar turlicha nomlar bilan atalgan. “So‘fiylar uzoq vaqtlardan beri ta‘kidlab keladilarki, barcha amaliyotlar albatta bir ustoz (murshid) rahbarligida amalga oshirilishi kerak, ya‘ni u ushbu an‘anani qabul qilgan va nazariy jihatdan bu yo‘lni bosib o‘tgan bo‘lishi lozim. Murshidga to‘liq itoat etish so‘fiylik hayotining asosiy sharti sifatida keng e‘tirof etilgan”[7, 8]. Tasavvuf ilmidan saboq beruvchi shaxs – shayx, murshid, pir, eshon, xoja, mavlo, mavlono, maxdum kabi unvonlar bilan tanilgan. Tasavvufdan saboq oluvchi shaxs – murid, solik, ahli dil, ahli hol, mutasavvif kabi nomlar bilan atalgan. Tasavvuf bo‘yicha oliy maqomlarga erishgan pirlar – valiy, avliyo, qutb, aqtob, avtod, chilton, abdol, abror, ahror, nujabo, nuqabo, siddiq, g‘avs deyilgan. Shuningdek, tasavvuf ahli ba‘zan oshiq, faqir, darvesh, qalandar, zohid, orif kabi atamalar bilan ham ifoda etilgan. Tasavvuf bilan shug‘ullanuvchilarga nisbatan ko‘proq “so‘fiy” nomi qo‘llanilgan, chunki ushbu so‘zning ma‘nosi ancha keng bo‘lib, boshqa tushuncha va atamalarni o‘z ichiga oladi. Agar “suf” so‘zidan so‘fiy yasalgan bo‘lsa, o‘z navbatida, “sufiy”dan “tasavvuf”, “mustasuf”, “muttasuf”, “mutasavvif” so‘zlari hosil bo‘lgan. Mustasuf – o‘zini so‘fiylarga o‘xshatib, taqlid qilib yuradigan, ammo asl maqsadi molu mulkka intilishdan iborat bo‘lgan kishidir. Mutassuf – tariqat va haqiqatda muayyan manzillarni egallagan, biroq so‘fiy darajasiga ko‘tarila olmagan kishidir. Mutasavvif – qalban so‘fiyona g‘oyalarga moyil, tasavvufni e‘tiqod qilib olgan, lekin tariqat amaliyotini o‘tamagan, rasman so‘fiy bo‘lmagan odam. Muhaqqiqlar esa eng oliy martabaga erishganlardir. “Muhaqqiqlar – Haqqa yetganlar, ularni oliy martabali so‘fiylar deb ta‘riflash mumkin”[5, 11]. Shayxlar va murshidlar, haqiqiy avliyolar muhaqqiqlar ichidan yetishib chiqqan.

So‘fiylikning o‘zini davrlarga ajratib ko‘rsatishimiz mumkin. “Olimlar tasavvuf rarixini dastlab ikki davrga ajratadilar: birinchisi – zohidlik davri, ikkinchisi – oriflik va oshiqlik davri” [5, 14]. Birinchi davr tasavvufning ibtidoiy davri hisoblanib, taqvo va parhezkorlikka yuqori darajada amal qilingan. Ushbu davrning yirik namoyondalari sifatida Ibrohim Adham, Hasan Basriy va Abu Hoshim Kufiy kabi tasavvuf vakillarini keltirishimiz mumkin. Ikkinchi davr esa IX asr o‘rtalaridan boshlanadi va ushbu davrning o‘zi bir qancha davrlarni o‘z ichiga oladi. Dastlabki IX-X asrlar xonaqohlarning paydo bo‘lishi va tariqat rusumlarining shakllanishi davri bo‘lsa, XI-XII asrlar tasavvuf silsilalarning, maktablarining tarkib topishi davri bo‘ldi. Misr, Bag‘dod, Basra, Buxoro, Nishopur, Termiz, Balx shaharlari tasavvuf, tariqatning yirik markazlari hisoblangan. Natijada Misr, Xuroson, Movarounnahr, Iroq va Turkiston maktablari eng mashhur maktablar sifatida tanilgan.

Tasavvuf davri so‘fiylarining o‘zlari ham bir necha turlarga bo‘lingan. Jumladan, “So‘fiylarning o‘zini ham orif so‘fiylar, zohid so‘fiylar, rind so‘fiylar, faqir so‘fiylar, faylasuf so‘fiylarga ajratish mumkin”[5, 14]. So‘fiylarning shu kabi turlarga ajratilishining asl sababi ularning tanlagan yo‘llaridagi farqlarda seziladi. Masalan, zohidlarning niyati ibodat bilan oxirat mag‘firatini qozonish, Qur‘onda va‘da qilingan jannatning huzur-halovatiga yetishish edi. Umumiy tarzda aytganda so‘fiylikda jannat

umidida toat-ibodat qilish ham tama'ning bir ko'rinishi hisoblangan. Chunki, so'fiy uchun dunyo va oxiratdan tama' bo'lmasligi kerak. Birgina istak Haq taoloning diydori hisoblanishi darkor deyiladi. Kufa, Bag'dod, Basra shaharlarida tarkidunyo qilgan zohidlar ko'p edi, aytilish kerakki, ularning obro'-e'tibori ham xalq orasida katta bo'lgan. Uvays Qaraniy, Hasan Basriy kabi yirik so'fiylar aslida zohid kishilar edilar. Zohidlar falsafiy mushohadakorlik, ma'naviy-axloqiy kamolot sari intilish, valiylik, karomatlar ko'rsatish kabi xislatlarga ega bo'lmaganlar.

Faylasuf so'fiylar haqida ham gap ketar ekan ularning eng ko'zga ko'ringan vakillari Abu Homid G'azzoliy, Shahobidin Suhravardiy, Najmiddin Kubro, Ibn Arabiy, Jaloliddin Rumiy, Bahouddin Naqshband va Alisher Navoiyda davrlar davomida shakllanib kelgan tasavvufiy qarashlar ifodalanadi. “XIII asr – XIV asr boshlari tasavvuf tarixida alohida bir mahsuldor davrdir. Bu davrga kelib, tasavvuf ham nazariy-ilmiy nuqtai nazardan, ham amaliy harakatchilik nuqtai nazaridan o'zining yuksak cho'qqisiga ko'tarilgan edi. Tasavvuf adabiyotining gullashi ham shu davrga to'g'ri keladi. Ayniqsa, Muhiddin ibn al-Arabiy, Yahyo Suhravardiy, Najmiddin Kubro singari mutafakkir shayxlar, Farididdin Attor, Ahmad Yassaviy, Jaloliddin Rumiy kabi ulug' so'fiy shoirlar tasavvuf ilmining doirasini kengaytirdilar, uni falsafa va hikmat bilan boyitdilar”[5, 15]. Falsafa va din, koinot, kalom va hadislar, ilohiy ilmlar bilan dunyoviy ilmlarning uyg'unligi tafakkuriy-aqliy yo'nalish sifatida rivoj topdi. Ular o'zlarining tasavvufiy yo'llari orqali ma'lum bir oqimlarga asos soldilar. Masalan, “Malomatiya”, “Junaydiya”, “Suxravardiya”, “Kubroviya”, “Chishtiya”, “Naqshbandiya”, “Bektoshiya” va shu kabi maktab yoki tariqatlar sifatida tanilgan oqimlar mavjud. “Bundan tashqari o'tmishda Mashriqzaminning turli mintaqa va shaharlarida “Shotiriya”, “Ahroriya”, “Hakimiya”, “Harroziya”, “Hafifiya”, “Sayyoriya”, “Rofe'iyah”, “Haydariya”, “Shoziliya”, “Ne'matullohiya”, “Nurbaxshiya” singari turli tasavvuf maktab va tariqatlari faoliyat ko'rsatib, irfoniy ma'rifat inkishofiga u yoki bu darajada ulush qo'shgan”[6, 11]. Bu tariqatlardagi asosiy maqsad Haq visoliga erishish bo'lib, ular tanlagan yo'llar boshqa-boshqa bo'lgan xolos.

Tasavvuf tarixidan ma'lumki, islom dinidagi mazhablar, qarashlar xilma xilligi so'fiylar hayoti va dunyoqarashiga ham ta'sir etib turgan. Xususan, sunniy va shia mazhablari orasidagi kurash sezilarli darajada iz qoldirgan. Tayfuriya, suhravardiya, hululiya, firdavsiya kabi silsilalar ko'proq shiachilikka moyil bo'lsa, yassaviya, naqshbandiya sunniy mazhabiga ko'proq moyillikda turgan tariqatlar hisoblangan. Masalan, Hazrat Bahouddin Naqshbandning asosiy faoliyati tasavvuf va tariqatni sunniy mazhabiga moslashtirish, uni shiachilikka xoslikda tozalashdan iborat bo'lgan. Natijada, Naqshbandiya sunniy mazhabli aholi orasida chuqur yoyilgan. “Naqshbandiyadan keyin tasavvuf tarixida boshqa silsila vujudga kelgan emas. Eron va Hindistonda ayrim yangi tariqatlar shakllangan, lekin ular shaxobchalar bo'lib, tasavvuf uchun yangi nazariy va amaliy yo'nalish bermadi”[5, 16]. Bundan ko'rinib turibdiki XV asrdan keyin tasavvuf olamida nazariy-falsafiy jihatlar susayib borgan.

Tasavvuf olamida so'fiy ayollar ham bo'lgan. Masalan, Fotima Nishoburiy, Robiya Addaviya, Sha'vona, Oisha al-Ba'uniyya kabilar. Ular orasida mashhur so'fiy ayol Robiya Adaviyya (714-801) Tangriga munojotlarida nola qilib aytar ekan: “Ey

Parvardigorim, ey Yori aziz, agar jannating tamaida toat qiladigan bo‘lsam, jannatingdan benasib et, agar do‘zaxingdan qo‘rqib ibodat qiladigan bo‘lsam, meni do‘zax o‘tida kuydir – ming-ming roziman! Ammo agar Sening jamolingni deb tunlarni bedor o‘tkazar ekanman, yolvoraman, meni jamolingdan mahrum etma!”[5, 10]. Robiya Addaviya tasavvufda muhabbat konsepsiyasining asoschilaridan biri sifatida tanilganligi yuqoridagi so‘zlari orqali sezilib turibdi. So‘fiy ayollar tasavvuf tarixida muhim o‘rin tutar ekan, ruhiy kamolot, Allohga muhabbat va ichki poklanish yo‘lida yuksaklikka erishgan mutasavviflardir. Ular erkak so‘fiylar singari ilohiy ishq, ruhiy tarbiya va axloqiy poklikning targ‘ibotchilari bo‘lgan. Ularning asosiy g‘oyalari va harakatlari orqali tasavvufda erkak va ayolar teng huquqli tarzda komillikka erishishi mumkinligini asoslab berdi.

Allohning vasfiga erishishdagi yana biro mil sifatida doimo zikr etish kerakli ta’kidlanadi. Tasavvuf yo‘lini tugan shaxslar doimo zikrda bo‘lishi, har amalida Allohni esda tutmog‘i darkordir. Zikr aytar ekan Allohga shukr va hamd bildirgan bo‘lib, hamisha qalbida Alloh borligini yoddan tutgan deya hisoblangan.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni ayta olamizki, tasavvufning shakllanishi borasida ko‘plab fikr-mulohazalar keltiriladi. Ularga nazar solsak, eng qadimiysi Odam Ato davriga va dunyoning yaratilishiga borib taqaladi. Tasavvuf yo‘lining dinlar bilan chambarchas aloqador ekanligi esa har bir din tamoyillarida so‘fiyona hayot tarzini uchramiz. Bu dinlar o‘rtasidagi aloqadorlikni yana bir namunasidir. Shuning tasavvuf tariqatlarining shakllanishi bir maqsad yo‘lida turlicha manzillar orqali yetib borish mumkinligini ifodalaydi. Ularning vakillari o‘zlarining qarashlari orqali buni namoyon etadilar. Tasavvuf tarixda ayol so‘fiylarning borligi esa yuksak e’tirofga munosibdir. Negaki, ularning faoliyatlari erkaklar va ayollarning bu yo‘ldan bora olishi imkoniyatini ifodalamoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. А.Абдуллаев. Тасаввуф ва унинг намояндалари. – Термиз, 2007. – 198 б.
2. Алишер Навоий. Насойимул мухаббат мин шамойимил футувват. – Тошкент: Mavarounnahr, 2017. – 575 б.
3. А. Gölpinarlı. 100 soruda tasavvuf. – İstanbul: Gerçek Yayınevi, 1985. – 198 s.
4. Farida Khanam. Sufism an introduction. – New Dehli:Printed in India, 2006. – 241 p.
5. Н.Комилов. Тасаввуф. – Тошкент:Мовароуннахр -Ўзбекистон, 2009. – 444 б.
6. Ҳ.Ҳомидий. Тасаввуф алломалари. – Тошкент: «Шарқ», 2004. – 203 б.
7. Nile Green. Sufism a global history. – Chichester: Wiley-Blackwell,2012. – 192 p.